

SPORTDA AGENTLIK FAOLIYATINING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Narziyev Jalaliddin Paygamovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, "Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish" kafedrasi dotsenti i.f.n.

E-mail: Jalaliddinnarziyev@gmail.com

Zakirova Umida Maxamadanovna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, "Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish" kafedrasi katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: Umida123655@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada sport agentlarining huquqiy maqomi va uni zamonaviy tartibga solish muammolari ko'rib chiqiladi, ilmiy ishlar va huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. "Sport agenti" tushunchasi tavsiflanadi. Sport agentligining huquqiy rejimining ikki xilligi, shu jumladan qonunchilik va korporativ darajalar aniqlandi.

Kalit so'zlar: sport agenti, sportchi, murabbiy, agentlik shartnomasi, sport agenti akkreditatsiyasi, korporativ standartlar.

KIRISH

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat qurilishidagi tub o'zgarishlar jamiyat ijtimoiy-madaniy faoliyatida, jumladan, jismoniy tarbiya sohasida hamda jismoniy tarbiya milliy tizimida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Bozor munosabatlariga o'tish natijasida, shuningdek, XX asrning 90-yillarida yuzaga kelgan sportning o'ziga xos rivojlanish ob'ektiv qonunlaridan kelib chiqib, professional tijorat sportining sekinlik bilan bo'lsada, shakllanish va rivojlanish jarayoni kuzatilmoqda. Ushbu islohotlar sport harakati tarkibida ustuvor yo'nalishlarni o'zgartirishga turtki berdi va professional sportni biznes qonunlariga muvofiq yashaydigan tomoshabop sanoatga aylantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga ko'maklashdi. Sportning tijorat funksiyalari kengroq namoyon bo'la boshladi. Insoniyat tsivilizatsiyasining rivojlanishi davomida sport o'zining xilma-xil turlari bilan jamiyat hayotida alohida o'rin egallab, hozirgi kunga kelib odamlar tomonidan tashkil etilgan sport turlari soni sanoqsiz. Shunga qaramay, barcha sport o'yinlari odamlarning kuchliroq, bardoshli, chaqqonroq, aqlli roq, tezroq va professional bo'lish istagi bilan birlashtirilgan.

Sport agentlarining paydo bo'lishini tarixchilar 1925 yilga, ya'ni futbolchi R. Grendj, K. Paylani o'z manfaatlarini himoya qiluvchi vakili sifatida yollagan davrga bog'lashadi. 1960-yilda amerikalik Mark Mak Kormak hozirda yuzlab atoqli sportchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi qudratli imperiyaga aylangan IMG agentligiga asos soldi. Bugungi kunda agentlik faoliyati professional sportning ajralmas va zaruriy qismi ekanligiga shubha yo'q. O'zbekistonda sportdagi agentlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil dekabrda PF-5887-son «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga asosan futbolni yangi bosqichga olib chiqishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida - salohiyati yuqori futbolchilarni professional darajada tayyorlash, ularni xorijiy davlatlarning nufuzli futbol klublarida professional faoliyat olib borishini ta'minlash, shuningdek, futbolchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida «Futbol bo'yicha agentlar» (vositachilar) professional faoliyatini yo'lga qo'yish belgilandi. Bundan tashqari Farmonda futbol sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish yo'nalishida xalqaro standartlar asosida futbol sport turi bo'yicha agentlar (vositachilar)ning faoliyatini tartibga solish va ularni akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Jismoniy madaniyat va sport sohasidagi mutaxassislarning eng muhim vazifalaridan biri sportchini tarbiyalashdir. Bu jarayonda trenerlar, o'qituvchilar, ota-onalar, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari mutaxassislari hamda sport menejerlari ishtirok etadi. Ammo, butun dunyoda ushbu jarayonda ishtirok etadigan tomonlardan biri, bizning mamlakatimizda soyada qolib ketmoqda. Butun o'zbek sporti uchun xos bo'lgan jihat, bu yosh sportchining professional sportga mustaqil ravishda moslasha olmasligi yoki yangi sharoitlarda o'zini yo'qotib qo'yishidir.

O'zbekiston Respublikasi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonunining «Asosiy tushunchalar» deb nomlangan 3-moddasida sport agentiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Sport bo'yicha agent — sportchi nomidan va uning manfaatlari uchun shartnoma asosida faoliyat ko'rsatadigan, tuzilgan shartnomalar shartlariga va sportchining huquqlariga rioya etilishini kuzatib boradigan shaxs». Mohiyatan sport agenti (adviser) -sportchining shartnoma shartlarini kelishib olish bo'yicha muzokaralar olib boradigan, unga yuridik,

tijoriy, maishiy, konsalting va boshqa xizmatlar ko'rsatagan va buning uchun haq oladigan shaxsdir.

Tashkiliy va huquqiy jihatdan sport agentlari yakka tartibdagi tadbirkor (jismoniy shaxslar), kollektiv tadbirkorlar shaklida esa - agentliklar (yuridik shaxslar) sifatida harakat qilishlari mumkin. Bu ikkala shakl ham sport olamida juda keng tarqalgan, ularning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor.

Sport bo'yicha agentning majburiyatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- tijoriy va transport xizmatlarini amalga oshirish, sotuvlar haqidagi ma'lumotlarni olish va muzokaralar olib borish;
- sportchi va san'atkorlarning chiqishlari bo'yicha shartnomalar tuzishni tashkil yetish, muzokaralar olib borish, shartnoma shartlarini tushuntirish va ularga rioya etilishini ta'minlash;
- kitoblarni nashr etish, spektakllarni sahnalashtirish, musiqa asarlarini ijro etish, ularni yozib olish va musiqa mahsulotlarini sotish to'g'risidagi shartnomalarni mijoz nomidan tuzish;
- turdosh vazifalarni bajarish;
- boshqa hodimlar ustidan rahbarlikni amalga oshirish.

NATIJARLAR

Shunday qilib, sport agenti sportchi o'z e'tiborini to'liqligicha mashg'ulotlar jarayoni hamda musobaqalarga qaratishiga sharoit yaratadigan prodyuser, top-menejer, shaxsiy administrator va tijorat direktori funksiyalarini amalga oshiradi. Zamonaviy sporda jismoniy yuklamalar va raqobat darajasi shu qadar yuqoriki, professional sportchi kundalik va tashkiliy muammolarga chalg'ishga shunchaki imkoniyat topa olmaydi. Uning o'rniga bunday ishlarni sportchi tomonidan vakolat berilgan shaxslar amalga oshiradi.

Agentning vazifasi-professional sportchiga u yoki bu sport turining biznes sifatidagi barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali qarorlar qabul qilishiga yordam berishdir. Agentning asosiy vazifalaridan biri sportchi karerasining o'sishi va moliyaviy farovonligini ta'minlashdir. Buni bajarish esa mushkul vazifa hisoblanadi, chunki agent sportchi va odatda ikki ish beruvchi o'rtasidagi vositachilikni amalga oshiradi.

Shunday qilib, sport agenti faoliyatining asosiy funksiyalari, quyidagilardir:

1. Yuridik ta'minot. Bunda, asosiy vazifa sportchi va ish beruvchi o'rtasida shartnoma tuzishdan iborat;

2. Psixologik yordam. Sport agenti vazifalardan biri sportchiga motivatsiya berish bo'lib, faqat shundagina sportchi karerasining o'sishiga erishadi;
3. Ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlash va sportchi karerasini rejalashtirish;
4. Tibbiy-biologik ta'minotni amalga oshirish;
5. Iqtisodiy masalalarda maslahatlar berish. Agent sportchiga ishlab topgan pullarini samarali investitsiya qilish yo'llarini ko'rsata olishi kerak;
6. Konsalting. Sportchi va uning oilasini kundalik maishiy muammolardan holi qilishi lozim;
7. Sportchini faoliyatini tugatgandan keyingi hayotga tayyorlash;
8. Public Relations. Har qanday biznesda bo'lgani kabi, sport biznesida ham, yaxshi ishlab chiqilgan media-reja tijorat muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi.

Ushbu funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun agent keng professional aloqalarga ega bo'lishi kerak. Sport agentining muhim kasbiy sifatlari, bu halollik, haqgo'ylik va o'qimishlilikdir.

MUHOKAMA

Demak, sportda agentlik faoliyati - sport tizimi sub'ektlariga shartnoma va shartnomadan tashqari asosda ko'rsatiladigan vositachilik xizmatlari majmui shaklida kasbiy asosda amalga oshiriladigan harakatlar majmuidir.

Agent o'z sportchisi uchun tarbiyachilik vazifasini ham bajarishi kerak bo'ladi. Gap shundaki, ko'pgina zamonaviy sportchilarda shaxsning motivatsion sohasi va faoliyatni irodaviy tartibga solish qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagan. Bu ko'pincha, munosib shartnomani imzolagandan so'ng, ba'zi yosh sportchilar intilishni to'xtatadi va zaxirada o'tirishga rozi bo'ladi. Shuning uchun agent mashg'ulotlarda faqat haqiqiy mehnat unga sportning yuqori cho'qqilariga erishishga yordam berishi, murabbiy aytganidan biroz ko'proq ishlash kerakligi, kichik narsadan boshlashning yomon jihati yo'qligi, chunki bu ishga to'g'ri munosabatda bo'lish kezi kelib, katta narsaga aylanishini sportchi ongiga doimiy ravishda singdirishi kerak.

Agentlik faoliyati zamonaviy professional sportning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatimizda sport agentlari faoliyatini yo'lga qo'yish professional sportni rivojlantirishdagi asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jahon sporti – bu:

- kasbiy mehnat faoliyatining turi (birinchi navbatda sportchi va trenerlar uchun);

- biznes (sport va marketing agentliklari, sport menejerlari va promouterlari, telekanallar va boshqa ommaviy axborot vositalari uchun);
- bozorda o'z mahsuloti va brendini targ'ib qilish uchun samarali kanal (homiylar uchun);
- o'z kompaniyasining haridorlar uchun ijobiy va jozibador imijini shakllantirish imkoniyati;
- natijalariga jamoatchilik tomonidan sinchikovlik bilan e'tibor qaratiladigan ijtimoiy hodisa.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, sportdagi agentlik faoliyatining fuqarolik - xuquqiy tabiati hozirgi vaqtda sport agenti faoliyatida mijozlar va boshqa manfaatdor shaxslar bilan munosabatlarni urnatishining deyarli barcha bosqichlarida yuzaga keladigan bir qator professional muammolarni yetarli darajada xal qila olmaydi. Zamonaviy professional sportda agentlik shartnomasining faqat fuqarolik-xuquqiy tuzilmalaridan foydalanishi endi yetarli emas, bu agentlar faoliyatining asosiy masalalarini batafsilroq tartibga solish zarurligini ko'rsatadi. Xamda ko'pgina zamonaviy sportchilarda shaxsning motivatsion soxasi va faoliyatini irodaviy tartibga solish qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagan. Bu ko'pincha, munosib shartnomani imzolagandan so'ng ba'zi yosh sportchilar intilishini to'xtatadi va zaxirada o'tirishga rozi bo'ladi. Shuning uchun agent mashg'ulotlarda faqat xaqiqiy mexnat unga sportning yuqori cho'qqilariga erishishiga yordam berishini, murabbiy aytganidan biroz ko'proq ishlash kerakligini, kichik narsadan boshlashning yomon jixati yo'qligini, chunki bu ishga turli munosabatda bo'lishi kezi kelib, katta narsaga aylanishini sportchi ongiga doimiy ravishda singdirishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, korporativ va qonun xujjatlari bilan bevosita ta'qiqlanmagan agentlik xizmatlarining mumkin bo'lgan turlarini taxlil qilish asosida, biz sportdagi agentlar faoliyatining ta'rifini shakllantirishimiz mumkin. Bu faoliyat sport tizimining sub'ektlariga shartnoma va shartnomadan tashqari asosda ko'rsatiladigan va asosan ixtisoslashgan sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni rasmiylashtirishga qaratilgan vositachilik xizmatlari to'plami shaklida professional asosda amalga oshiriladigan xarakterlar majmui sifatida tushunilishi kerak.

Sport agenti birinchi o'rinda sportchining manfaatlarini ko'zlab, uning uchun bir qator xizmatlar majmuini amalga oshiruvchi vakildir. Sport soxasidagi agentlar faoliyatini jismoniy shaxslar xam, yuridik shaxslar xam agent sifatida faoliyat

yuritishi mumkin bo'lib, bu yerda vakillar faoliyat ko'rsatuvchi sport turini xal qiluvchi axamiyatga ega. Shunday xolatlar xam mavjudki, bunda professional sport agenti birdaniga bir nechta sport turini qamrab oladi. Masalan, AQSh da bir shaxsdan xokkeyda, beysbolda, amerika futbolida agentlik xizmatlari taklifini olish mumkin. Sport agenti tushunchasini uning faoliyatidan kelib chiqqan xolda ta'riflash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. О.В. Ремишевская, Правовое регулирование агентского договора в предпринимательской деятельности: д.к.ю.н., / О.В. Ремишевская. — М., 2008. — 250 б.
2. "O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni. T. 2015.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2017 yil 3 iyun.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. 2021 yil 6 aprel.
5. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning xuquqiy asoslari. /Sh.B. Djumakulov. O'quv qo'llanma.- T.2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. - T.2021.
7. Xalqaro sport xuquqi asoslari. / G.R. Asatova, A.X.Xayotov, B.A. Narimanov. O'quv qo'llanma.- T.: 2018.